



UDK: 94:631(045)

Iskandar SAMADOV,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: iskandarsamadov9@mail.com

O'zMU professori, tarix fanlari doktori R.Tursunov taqrizi asosida

XIVA XONLIGI TUGATILISHI VA XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASIDA DASTLABKI AGRAR ISLOHOTLAR BOSHLANISHI

Annotatsiya

Maqolada Xiva xonligining tugatilishi, Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi va undagi dastlabki agrar islohotlar jarayoni yoritiladi. Arxiv hujjatlari va davriy matbuot materiallari asosida 1920–1924-yillardagi yer-suv siyosati, yersiz va kam yerli dehqonlarga yer taqsimoti, irrigatsiya inshootlarini tiklash hamda agrar kooperatsiyani rivojlantirish bo'yicha dastlabki chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari XXSR agrar siyosatining shakllanish jarayonini o'rganishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlari: Xiva xonligi, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi, agrar islohotlar, yer-suv siyosati, yersiz va kam yerli dehqonlar, irrigatsiya ishlari, qishloq xo'jaligi banki, kooperatsiya, yer taqsimoti.

ABOLITION OF THE KHIVA KHANATE AND THE BEGINNING OF INITIAL AGRARIAN REFORMS IN THE KHOREZM PEOPLE'S SOVIET REPUBLIC

Annotation

The article examines the abolition of the Khiva Khanate, the establishment of the Khorezm People's Soviet Republic, and the process of implementing its initial agrarian reforms. Based on archival documents and periodical materials, it analyzes the land and water policy of 1920–1924, the distribution of land to landless and smallholding peasants, the restoration of irrigation facilities, and the initial measures for developing agrarian cooperation. The findings of the study provide an important scholarly basis for exploring the formation of the agrarian policy of the KPSSR.

Key words: Khiva Khanate, Khorezm People's Soviet Republic, agrarian reforms, land and water policy, landless and smallholding peasants, irrigation works, agricultural bank, cooperation, land distribution.

ЛИКВИДАЦИЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И НАЧАЛО ПЕРВЫХ АГРАРНЫХ РЕФОРМ В ХОРЕЗМСКОЙ НАРОДНОЙ СОВЕТСКОЙ РЕСПУБЛИКЕ

Аннотация

В статье рассматриваются ликвидация Хивинского ханства, образование Хорезмской Народной Советской Республики и процесс проведения в ней первых аграрных реформ. На основе архивных документов и материалов периодической печати анализируются земельно-водная политика 1920–1924 годов, распределение земли безземельным и малоземельным крестьянам, восстановление ирригационных сооружений, а также первые меры по развитию аграрной кооперации. Результаты исследования служат важной научной основой для изучения процесса формирования аграрной политики ХНСР.

Ключевые слова: Хивинское ханство, Хорезмская Народная Советская Республика, аграрные реформы, земельно-водная политика, безземельные и малоземельные крестьяне, ирригационные работы, сельскохозяйственный банк, кооперация, распределение земли.

Kirish. 1917-yil Fevral inqilobi Rossiyada podsho hokimiyatining ag'darilishiga olib keldi va Xiva xonligining ijtimoiy-siyosiy hayotiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bu jarayon xonlik hududida siyosiy faollikni kuchaytirib, islohot g'oyalari va inqilobiy qarashlarni tarqalishiga zamin yaratdi. Jadidlar — yosh xivaliklar mavjud mustabid tuzumni tanqid ostiga olib, konstitutsiyaviy boshqaruv, adolatli soliq tizimi, zamonaviy ta'lim va demokratik islohotlarni yo'lga qo'yishni maqsad qildilar. Fevral inqilobidan keyin ular birinchi marta xon hokimiyatiga qarshi ochiq siyosiy kurashga chiqib, Xiva xonligidagi siyosiy muhit o'zgarishida muhim rol o'ynadi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, xonlik tugatilishi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi mintaqa tarixida tub burilish yasab, yer-suv siyosati hamda agrar islohotlar orqali aholi hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ushbu jarayonlarni tahlil qilish XX asr boshidagi siyosiy islohotlar tajribasini, ularning imkoniyat va cheklovlarini anglashga yordam beradi. Maqolaning maqsadi — 1920–1924-yillarda XXSRda amalga oshirilgan dastlabki agrar islohotlar

jarayonini tarixiy manbalar asosida yoritishdir. Vazifalarga agrar siyosatning shakllanish omillarini, yer-suv taqsimoti tizimini, irrigatsiya ishlari, qishloq xo'jaligi kredit tizimi va kooperatsiya faoliyatini o'rganish kiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xiva xonligi tugatilishi, Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi va undagi dastlabki agrar islohotlar masalasi sovet davrida ham, mustaqillik yillarida ham bir qator tarixshunoslardan tomonidan tadqiq etilgan. Sovet davrida A. A. Gordiyenko (1959), X. Hamdamov (1960) va I. V. Pogorel'skiy (1984) mazkur jarayonlarni asosan sovet hokimiyatining "xalqni ozod qilish" siyosati doirasida talqin qilgan. Mustaqillikdan keyingi izlanishlarda esa M. Matkarimov, M. Matniyozov, N. Polvonov, Q. Rajabov va boshqa olimlar masalaga milliy davlatchilik va tarixiy haqiqat nuqtayi nazaridan yondashgan. Mazkur tadqiqotlarda XXSR agrar siyosati, yer-suv islohotlari va dehqon xo'jaliklarini qayta tashkil etish masalalari bo'yicha arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari, xususan "Inqilob quyoshi" gazetasi hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar muhim

manba sifatida foydalanilgan. Biroq mavjud adabiyotlar mazkur davr agrar islohotlarini turli jihatlarida yoritgan bo'lsa-da, ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tomonlarini birgalikda kompleks tahlil qilish hali ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot tarix fanining umumiy ilmiy prinsiplari — tarixiylik, obyektivlik va tizimlilik asosida olib borildi. Jarayonda tarixiy tahlil metodi yordamida Xiva xonligi tugatilishi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi hamda 1920–1924-yillardagi agrar islohotlar bosqichma-bosqich o'rganildi, qiyosiy tahlil metodi orqali sovet davri va mustaqillik yillarida yaratilgan tarixshunoslik asarlarida mazkur davr voqealariga berilgan talqinlar qiyoslandi. Manbashunoslik tahlili doirasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi va Xorazm viloyat davlat arxivida saqlanayotgan hujjatlar, shuningdek, “Inqilob quyoshi” va Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasining “Izvestiyasi” gazetalarida chop etilgan materiallar o'rganildi. Tizimli yondashuv asosida agrar islohotlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini o'zaro bog'liqlik holda tahlil qilindi. Tadqiqotning ishonchiligi arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari va zamonaviy ilmiy tadqiqotlarni o'zaro solishtirish orqali ta'minlandi.

Tahlil va natijalar. Petrograd 1917-yil fevral oyida inqilob yuz berib, imperator Nikolay II taxtdan ag'darilgan bir vaqtda, Asfandiyorxon Yaltada bo'lib, inqilobiy voqealar sabab Toshkentga qaytib general Kuropatkin bilan uchrashgan va general Mirbadalov boshchiligidagi harbiy otryad bilan Xivaga qaytgan edi [1]. 1917-yil 4-aprel kuni Xiva shahrida yosh xivaliklar tashabbusi bilan o'tkazilgan ommaviy namoyish xonlikdagi siyosiy bosim kuchayayotganining yaqqol ifodasiga aylandi. Ular xon hokimiyatini cheklovchi majlis tuzishni, ayrim amaldorlarni lavozimdan chetlatishni hamda xalq manfaatini ko'zlovchi siyosiy tuzum joriy etishni taklif etdilar. Islohot talablari manifest ko'rinishida rasmiylashtirilib, yosh xivaliklar delegatsiyasi tomonidan xonga taqdim etildi. 5-aprel kuni Asfandiyorxon manifestni imzolab, uni rasmiy yig'ilishda e'lon qildirdi.

1917-yil 5-apreldagi manifest imzolanganach, Xiva xonligida qisqa muddatga konstitutsion monarxiya shakllanishi yo'lida amaliy harakatlar boshlandi. “Idorai mashruta” tashkil etilib, xon huzurida Qozikalon Bobo Oxun Salimov boshchiligidagi Majlis, Husaynbek Matmurodov raisligida Nozirlar kengashi tuzildi. Dastlab 30 kishilik Majlis tarkibi keyinchalik Bobo Oxun Salimovning taklifi bilan turkman, qozoq va qoraqolpoq vakillari hisobiga kengaytirilib, 49 kishiga yetdi [2]. Muhim lavozimlarni yosh xivaliklar egalladi. Biroq xon hokimiyati bu jarayonlarni vaqtinchalik murosas sifatida qabul qilgan bo'lib, keyingi voqealar uning islohotlarga sodiq emasligini ko'rsatdi.

1917-yil yoziga kelib, Xivadagi konstitutsion islohotlar jarayoni to'xtatilib, siyosiy murosas o'rini zo'ravonlik va bosim egalladi. Asfandiyorxon Muvaqqat hukumatning Xivadagi vakili general Mirbadalov boshchiligidagi harbiy kuchlarga tayanib, Majlisni tarqatib yubordi [3]. Iyul oyining boshida esa Matmurodov boshchiligidagi yosh xivaliklar hibsga olinib, ularga qarshi siyosiy ta'qib boshlandi. Shu tarzda yosh xivaliklarning qonuniy va tinch yo'l bilan siyosiy islohotlar joriy etishga qaratilgan sa'y-harakatlari muvaffaqiyatsiz yakun topdi.

1917-yil Oktabr to'ntarishidan so'ng Rossiyada bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelib, Turkiston o'lkasida sovet hokimiyati o'rnatilishi bilan Xiva xonligi va Sovet Rossiyasi o'rtasidagi siyosiy vaziyat keskinlashdi. 1918-yil 5-yanvarda polkovnik Zaysev Turkistondagi sovet hokimiyatiga qarshi kurashish uchun Xivada joylashgan barcha rus qo'shinlarini olib ketadi [4]. Bu harakat Asfandiyorxonni o'zining asosiy harbiy tayanchidan mahrum etdi. Shunday vaziyatda qurolli kuchga ega bo'lgan yovmut urug'i boshlig'i

Jo'naidxon siyosiy maydonga chiqdi. Asfandiyorxon mamlakatdagi murakkab siyosiy tanglikka qarshi tura olmasligini anglab, 1918-yil 22-yanvarda Jo'naidxonni poytaxtga chaqirib, uni qo'shin qo'mondoni lavozimiga tayinladi. Shundan boshlab, xonlik rasmiy ravishda Asfandiyorxon nomidan boshqarilgan bo'lsa-da, amalda butun siyosiy hokimiyat Jo'naidxon qo'lida bo'ldi. 1918-yil 30-sentabrda Jo'naidxon davlat to'ntarishi orqali Asfandiyorxonni taxtdan ag'dardi [5]. Oradan ikki kun o'tib, u xonni saroyida o'ldirib, 3-oktabrda uning akasi Said Abdullani taxtga o'tqazdi. Shu tariqa yangi xon faqat nomigagina hukmdor bo'lib, butun hokimiyat Jo'naidxon qo'lida jamlandi.

Sovet Rossiyasi Xiva xonligi ichki siyosiy kuchlaridagi qarama-qarshiliklardan foydalanishga harakat qildi. 1919-yil noyabrda bolsheviklar, yosh xivaliklar va Junaidxon bilan raqobatdosh turkman urug'lari vakillaridan iborat inqilobiy markaz (revkom) tuzildi. Ular xonlikni ag'darish va yangi hokimiyat tizimini o'rnatishni maqsad qilgan edilar. RSFSR hukumati bu jarayonni “qo'zg'olon ko'targan xalqqa yordam” degan shior ostida rasmiylashtirib, Turkiston komissiyasi orqali bevosita harbiy aralashuvni boshladi. Sovet tarixshunosligida Qizil Armiyaning Xivaga kirishidan avval Amudaryo revkomi raisi Xorazm aholisiga uning do'stona harakati haqida murojaatnoma e'lon qilgani ta'kidlangan. Biroq tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, bu murojaatnoma aslida 1920-yil 7-fevralda — Xiva xoni ag'darilganidan keyin e'lon qilingan. 8-fevralda esa u “Izvestiyasi” sahifasida RSFSR ishchi va dehqonlariga “yosh xivaliklar” inqilobiy qo'mitasining murojaatnomasi sifatida chop etilgan [6].

1919-yil dekabr oyida sovet qo'shinlari ikki yo'nalishda Xiva hududiga bostirib kirdi: Shimoliy otryad N. Shaydakov, janubiy otryad esa N. SHERBAKOV qo'mondonligida harakatlandi. Mahalliy qo'zg'olonchi kuchlar, jumladan yosh xivaliklar va kommunistlar ularni quvvatladi. 1920-yil yanvar oyida sovet qo'shinlari Ko'hna Urganch, Porsu, Yeminqal'a, Ilyali, Toshhovuz hududlarini egallab, nihoyat 1-fevral kuni Xivaga kirib keldi. Ertasi kuni, 2-fevralda Said Abdullaxon taxtdan voz kechdi va butun hokimiyat Muvaqqat inqilobiy qo'mitaga o'tdi [7].

Ushbu davrda Muvaqqat inqilobiy hukumat nafaqat iqtisodiy va madaniy qurilish ishlari boshlab yubordi, balki siyosiy tizimni shakllantirish yo'lida ham muhim qadamlar qo'ydi. Xususan, xalq vakillarining I Butunxorazm qurultoyini chaqirish bo'yicha tayyorgarlik ishlari boshlandi. Qurultoyni tayyorlash jarayonida 1920-yil 25-martda Xiva Muvaqqat inqilobiy hukumatini RSFSR va Turkiston respublikalari nomidan tabriklash uchun kelgan maxsus missiya rahbari, keyinchalik esa RSFSRning Xorazm Xalq Sovet Respublikasidagi muxtor elchisi bo'lib ishlagan G.I. Broydoning faoliyati alohida o'rin egalladi [8].

Yosh xivalik jadidlar Xorazmda ag'darilgan xonlik tuzumi o'rniga demokratik respublika barpo etishga intildilar. Yangi davlat asoslarini yaratishda 1920-yil 26–30-aprel kunlari Xivada bo'lib o'tgan Butunxorazm xalq vakillarining I qurultoyi muhim tarixiy voqea bo'ldi [9]. Qurultoyda Xiva xonligi tugatilganligi e'lon qilinib, mamlakat qadimiy nomi — Xorazm tiklandi va yangi davlat Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) deb nomlandi. Shu bilan birga, qurultoyda XXSRning ilk konstitutsiyasi, davlat gerbi va bayrog'i tasdiqlandi [10].

Xorazm Xalq Sovet Respublikasining (XXSR) birinchi hukumatida jadidlar asosiy o'rinni egallagan bo'lsa, u “yosh xivaliklar hukumati” deb atalgan. Yosh xivaliklar Qizil Armiya va bolsheviklar yordami bilan hokimiyatga kelgan bo'lsalar-da, mamlakatda xonlikdan qolgan asoratlarni tugatish, demokratik tuzumni qaror toptirish va mustaqil Xorazm davlatini barpo etish yo'lida qat'iyat bilan harakat qildilar. Shu bois, Rossiya rasmiy doiralari, jumladan

Turkiston komissiyasi va Turkiston fronti vakillari, yosh xivaliklar hukumatining mustaqil siyosat yuritish harakatlariga qarshi chiqib, uning faoliyatini cheklash hamda mamlakatdagi siyosiy-iqtisodiy jarayonlarni o'z manfaatlariga mos tarzda boshqarishga harakat qildilar.

1920-yil 13-sentabrda Moskvada Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) bilan Rossiya Sovet Federativ Sotsialistik Respublikasi (RSFSR) o'rtasida ikki tomonlama shartnoma imzolandi. Ushbu hujjatlar tarkibiga 24 moddadan iborat siyosiy-itifoq shartnomasi, 15 moddadan iborat iqtisodiy bitim hamda alohida harbiy-siyosiy bitim kiritilgan edi. Shartnomaga ko'ra, RSFSR XXSRning mustaqilligi va daxlsizligini rasmiy ravishda tan oldi. Rossiya imperiyasi davrida rus kapitalistlari tomonidan Xiva xonligi hududida bunyod qilingan barcha bank, zavod-fabrika, savdo korxonalari va boshqa mulklar XXSR mulki sifatida qayd etildi. Shuningdek, 1920-yil 13-sentabrgacha mavjud bo'lgan chegara davlat chegarasi sifatida belgilandi.

Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tashkil etilgach, hukumat oldida turgan asosiy vazifa xalq xo'jaligini qayta tiklash orqali iqtisodiy hayotni yaxshilash edi. Respublika hukumati butun o'lka xo'jaligi og'ir ahvolda bo'lgan bir sharoitda faoliyatini boshladi. 1917- yilda Xiva xonligida 107 600 ta xo'jalik mavjud bo'lib, ularning 91 foizdan ortig'i dehqonchilik bilan shug'ullangan. Biroq 1920 yilga kelib xo'jaliklar soni 76 270 taga kamaygan, ekin maydonlari esa 66,7 foizga qisqargan edi [11]. Xo'jaliklar sonining kamayishi va ekin maydonlari hajmining keskin qisqarishiga inqilobiy harakatlar, siyosiy beqarorlik, suv inshootlarining vayron bo'lishi, aholining ko'chib ketishi hamda qishloq xo'jaligi vositalarining yetishmasligi kabi omillar sabab bo'lgan. Shunday sharoitda, respublika xalq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligida, ayniqsa, yer-suv masalasi eng dolzarb muammolardan biri sifatida namoyon bo'ldi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligi feodal-monarxik boshqaruv shakliga ega bo'lgan davlat bo'lib, unda yer va suvga egalik qilish, aholiga turli soliq va yig'implarni yuklash, shuningdek, fuqarolarning davlat oldidagi majburiyatlarini ado etish masalalarida asrlar davomida shakllangan tartib-qoidalarga qat'iy amal qilingan. Xonlikda yer asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lib, uning katta qismi hukmron qatlam qo'lida to'plangan, oddiy aholining esa yerga egalik huquqi qat'iy cheklangan edi.

Yosh xivaliklar avvalboshdanoq xon istibdodi ag'darilgandan so'ng yer va suv berish haqida radikal sotsial-iqtisodiy rejalarni amalga oshirishga va'da bergan edilar. Bu yo'nalishda ilk muhim qadam sifatida Butun Xorazm xalq vakillarining I qurultoyida Ziroat nozirligi (qishloq xo'jaligi nozirligi) tashkil qilindi va unga respublikada yer-suv ishlari bilan shug'ullanish vazifasi yuklatildi. Aynan shu davrda Xorazmda mavjud dehqonchilik resurslarining tuzilmasi shunday ko'rinishga ega edi: umumiy hisobda 400 ming tanob (166 ming desyatina) yaroqli yer mavjud bo'lib, ulardan 150 ming tanobida jo'xori, 60 ming tanobida bug'doy, 100 ming tanobida paxta, 60 ming tanobida sholi va 30 ming tanob yerda esa boshqa turdagi ekinlar yetishtirilgan [12].

XXSR Ziroat nozirligi dastlab xon va uning amaldorlari, yirik yer egalariqa qarashli yer mulklar, to'qay va ko'llar, mehnat qurollari va ish hayvonlari hamda urug'lik donni musodara qilib, ularni Qizil Armiya oilalariga, yer-siz va kam yerli dehqonlarga taqsimlab berdi. 1920-yil apreldan 1921-yil martigacha bo'lgan davrda mazkur nozirlik davlat budjetiga umumiy hisobda 2 million so'm miqdorida daromad keltirdi [13].

1921-yil dekabr oyida Xivada kam yerli va yersiz dehqonlarning birinchi qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda 34 nafar delegat 2600 nafar a'zoni ifodaladi. Qurultoyda dehqonlarga yer-suv, ot, mehnat qurollari, urug'lik va kredit berish masalalari muhokama qilinib, qishloq xo'jaligi banki tashkil etish, kooperatsiyani kengaytirish hamda yarmarka o'tkazish taklif etildi. Shuningdek, paxta yetishtirganlarga mukofot berishda yo'l qo'yilgan xatoliklarni aniqlash uchun komissiyalar tuzish belgilandi [14]. Qurultoy qaroriga asosan, 1922-yil bahorida 3 milliard so'm asosiy kapitalga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi banki tashkil etildi. Mazkur bank o'sha yilning o'zida kambag'al dehqon xo'jaliklariga 1,5 milliard so'm miqdorida qarz mablag'i ajratdi [15]. Qisqa muddatli kreditlarning o'zi qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun yetarli bo'lmagan.

XXSRda 1920–1921 yillar davomida musodara qilingan yerlar hisobidan kambag'al dehqonlar, qarollar (batraklar), bevtanlar, korandalar va vaqf egalarga 10 ming desyatina yer bo'lib berildi. Ular qishloq xo'jaligi asbob-uskunalar, urug'lik, chorva mollari, uy-joy va boshqa zarur buyumlar bilan ham ta'minlandi [16]. Umuman olganda, 1921–1922 yillarda 400 ming tanobdan ortiq yer kambag'al dehqonlarga bo'lib berildi [17].

1922-yilda yersiz va kam yerli dehqon xo'jaliklarini yer, ish hayvonlari hamda mehnat qurollari bilan ta'minlash maqsadida davlat yer fondi tashkil etildi [18]. Mazkur fond tomonidan 1922-yil oktabrdan 1923-yil aprelgacha davom etgan taqsimot jarayonida xon, uning qarindoshlari, amaldorlar va yirik yer egalari ixtiyorida musodara qilingan 62 400 tanob yerning 7 250 tanobi 1 170 nafar kambag'al dehqon xo'jaliklariga bo'lib berildi [19].

Xulosa. Xiva xonligining tugatilishi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi mintaqa tarixida chuqur siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. XXSR hukumatining agrar sohadagi dastlabki faoliyati yersiz va kam yerli dehqonlarni qo'llab-quvvatlash, yer-suv taqsimotini adolatli yo'lga qo'yish, irrigatsiya inshootlarini tiklash va agrar kooperatsiyani rivojlantirishga qaratildi. Arxiv hujjatlari va davriy matbuot materiallari tahlili shuni ko'rsatadiki, 1920–1924-yillardagi islohotlar mavjud imkoniyatlar va cheklovlar doirasida olib borilgan bo'lsa-da, ular XXSR agrar siyosatining shakllanishida muhim bosqich bo'lib xizmat qildi. Shu bilan birga, Sovet hukumati yosh respublikada amalga oshirilgan islohotlarda o'z manfaatlarini ko'zlab ish tutdi. Bu jarayonlar natijasida XXSR qishloq xo'jaligi, ayniqsa paxtachilik sohasi, Sovet Rossiyasining sanoati uchun muhim xomashyo manbaiga aylandi.

ADABIYOTLAR

1. Hamdamov X. “Xiva xonligining ag'darilishi va Xorazm Sovet Xalq Respublikasining tuzilishi”. – T.: “O'zdamnashr”, 1960. – B.42.
2. O'zbekiston tarixi. XI jild. Xorazm tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 435-bet.
3. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Ikkita kitob. Birinchi kitob. 1917-1939-yillar. Mas'ul maharrirlar: R.Abdullayev. M.Rahimov, Q.Rajabov. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 560-bet.
4. O'zbekiston tarixi. XI jild. Xorazm tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 439-bet.
5. M. Matniyozov. Xorazm tarixi. II jild. Urganch: “Xorazm”, 1997. – 19-bet.
6. Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalar tarixi (1900–1924). – Toshkent: Akademnashr, 2011. – 76-bet.
7. Rajabov Q. O'zbekiston XX asrda. Birinchi jild (1900–1939). – Toshkent: Fan, 2024. – 357-bet.

8. Matkarimov M. Xorazm Respublikasi: davlat tuzilishi, nozirlari va iqtisodi. – Urganch: Xorazm, 1993. – 17-bet.
9. Rajabov Q. O'zbekiston XX asrda. Birinchi jild (1900–1939). – Toshkent: Fan, 2024. – 358-bet.
10. M. Matniyozov. Xorazm tarixi. II jild. Urganch: “Xorazm”, 1997. – 30-bet.
11. M. Matniyozov. Xorazm tarixi. II jild. Urganch: “Xorazm”, 1997. – 43-bet.
12. История Хорезмской Народной Советской Республики (1920–1924 гг.). Сборник документов. – Ташкент: Фан, 1976. – С. 101.
13. O'zbekiston Milliy arxivi, R-71-fond. 1-ro'yxat. 4-ish. 107-varaq.
14. История Хорезмской Народной Советской Республики (1920–1924 гг.). Сборник документов. – Ташкент: Фан, 1976. – С. 135.
15. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 223.
16. Matniyozov M.. Xorazm tarixi. II jild. Urganch: “Xorazm”, 1997. – 46-bet.
17. O'zbekiston Milliy arxivi, R-71-fond. 1-ro'yxat. 18-ish. 24-varaq.
18. O'zbekiston Milliy arxivi, R-71-fond. 1-ro'yxat. 45-ish. 29-41-varaqlar.
19. O'zbekiston Milliy arxivi, R-71-fond. 1-ro'yxat. 31-ish. 93-99 varaqlar.